



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



obrazi zamonaviy dunyoni anglaydigan, o'z fikriga ega, axloqiy mezonlarga ega shaxs sifatida tasvirlanadi.

Ularning ijodidagi qahramonlar oddiy bola emas — o'z yurti, oilasi, tabiat bilan ruhiy bog'langan, ba'zan o'zini topishga intilayotgan, ba'zan esa boshqalarga saboq beruvchi idealga yaqin obrazlardir. Bu obrazlar orqali zamonaviy bola nafaqat o'zini anglaydi, balki o'zi yashayotgan muhitni, ijtimoiy qadriyatlarni ham qayta kashf etadi.

Shunday qilib, zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida qahramon obrazining shakllanishi muallifning estetik qarashlari, pedagogik maqsadlari va badiiy mahorati bilan chambarchas bog'liq. Dilshod Rajab va Anvar Obidjonning ijodiy tajribasi esa bu yo'nalishda katta maktab bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajab, D. Bahor keldi seni izlab. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018. – 64 b.
2. Rajab, D. O'g'lim, sen baxtlimisan? – Toshkent: Sharq, 2020. – 80 b.
3. Obidjon, A. Boychechak. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 72 b.
4. Obidjon, A. Sehrli ko'zgu. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2021. – 100 b.
5. Inoyatova, F. Zamonaviy o'zbek bolalar she'riyati: g'oya va obrazlar olami // Ijod. – 2020. – №3. – B. 50–52.
6. Mahmudov, I. Zamonaviy bolalar nasri: tahlil va talqinlar // Adabiy tanqid. – 2022. – №1. – B. 42–44.
7. Saidova, M. O'zbek bolalar adabiyotida obraz muammosi // Filologiya masalalari. – 2019. – №2. – B. 37–41.
8. Nazarov, B. Bolalar adabiyotining nazariy asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015. – 144 b.

“SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI” HIKOYASIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TASVIRIDA DETAL VA ISMLAR POETIKASI

Yulduz Mustafayeva Nortoqi qizi

*ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
1-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: Gulnoza Jurayeva f.f.d.prof.

mustafayevayulduz333@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasida qahramonlar ruhiyati tasviri va detallar poetikasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asarda Bayna momo obrazining ruhiy iztiroblari, yolg'izlik, g'azab va qasos hissiyotlari chuqur yoritiladi. Maqolada hikoyaning markaziy mavzulari – o'tmish va hozirgi zamon ziddiyati, adolat va zulm, insoniy qadriyatlar va ularning yemirilishi kabi masalalar tahlil etilgan. Tadqiqotda psixologik metod va kontekstual tahlil usullari qo'llanilib, Bayna momoning hayoti, sandig'idan chiqqan detallar (qamchi, xanjar, o'nta odam barmog'i va boshqalar) orqali inson ruhiyatining nozik qatlamlari ochib beriladi. Shuningdek, hikoyadagi ismlar poetikasi, xususan, “Bayna” va “Zamon



otboqar" ismlarining ramziy ma'nosi tahlil qilinadi. Maqola Nazar Eshonqul ijodidagi badiiy detallar va ruhiy tafakkur jarayonlarini anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: shamol, ruhiyat, detal, sandiq, qadriyat, psixologik metod.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the description of the psyche of the heroes and the poetics of details in Nazar Eshonkul's story "Shamolni tutib bo'lmaydi". In the work, the mental anguish, loneliness, anger and revenge feelings of the character of grandma Bayna are deeply covered. The article analyzes the central themes of the story - the conflict between the past and the present, justice and oppression, human values and their decay. The psychological method and contextual analysis methods are used in the research, revealing the subtle layers of the human psyche through the life of grandma Bayna, details from her chest (whip, dagger, ten human fingers, etc.). Also, the poetics of the names in the story, in particular, the symbolic meaning of the names "Bayna" and "Zamon otboqar" are analyzed. The article helps to understand the artistic details and mental processes of Nazar Eshonkul's work.

Key words: wind, spirit, detail, chest, value, psychological method.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу описания психики героев и поэтики деталей в повести Назара Эшанкула "Shamolni tutib bo'lmaydi". В произведении глубоко затронуты душевные муки, одиночество, гнев и чувство мести персонажа бабушка Байна. В статье анализируются центральные темы повести – конфликт прошлого и настоящего, справедливость и угнетение, человеческие ценности и их разложение. В исследовании использованы психологический метод и методы контекстуального анализа, раскрывающие тонкие пласты человеческой психики через жизнь бабушка Байна, детали из ее груди (кну́т, кинжал, десять человеческих пальцев и др.). Также анализируется поэтика имен в повести, в частности, символическое значение имен "Байна" и "Замон коневод". Статья помогает понять художественные детали и психические процессы творчества Назара Эшанкула.

Ключевые слова: ветер, дух, деталь, сундук, значение, психологический метод.

KIRISH

Zamonaviy o'zbek nasrining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqul asarlarining o'ziga xosligi kitobxonni o'ziga tortadi. Nazar Eshonqul nasrimizning zalvorli adibi. Jumladan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshevning "Istiqlol nasri belgilari" nomli maqolasida nasrimizdagi yangilanishlarga to'xtalar ekan, adib haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "O'z fikrlash tarzi va tasvir yo'sini bilan hozirgi o'zbek nasri taraqqiyotida alohida o'rin tutgan Nazar Eshonqul bizga ko'rinib turadigan hayotni emas, balki tamomila o'ziga xos va betakror odamlarning tamomila o'zgacha va qaytarilmas o'ylari, dunyosini hech kimga o'xshamagan yo'sinda tasvirlash yo'lidan bormoqda" [1:196]. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi, fojeaviy va dramatik asar sifatida ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (Research methodology)

Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida tasvirga olingan murakkab hayot, qahramonning ichki kechinmalari kontekstual tahlil va psixologik metod orqali ochib berilgan.

MUHOKAMA VA NATIJA (Discussion and results)

Asarda o'tmish va hozirgi zamon, adolat va zulm, yolg'izlik va jamiyatdan ajralish kabi mavzular qahramonlar ruhiyatiga singdirilgan holda tasvirlangan. Asar markazida Bayna momoning hayoti va uning ruhiy sinishi yotadi.



Asar Bayna momoning uyining buzilishi bilan boshlanadi, bu esa uning ruhiy holatining yemirilishi va yolg'izlikka mahkumligini anglatadi. *"...Yuz yildan beri tersotaliklarning g'ururi va faxri bo'lib kelgan, zamonaviy qilib qurilgan ravoqli uylar qarshisida yuzdagi chipqondek qishloqqa ko'rimsizlik va keksalik bag'ishlab turgan noma'lum va mudhish sinoatlarga to'la qadim qo'rg'onni eslatuvchi Bayna momoning uyini xuddi unutishga va yo'q qilishga mahkum etilgan xotiradek nihoyat buzib tashlashga kirishishdi..."* [2:331] Bu tasvir orqali Bayna momoning hayoti va o'tmishi bir vaqtlar hurmatga sazovor bo'lgan, lekin endi zamonaviylik oldida qadrsizlanib borayotganini ko'rsatadi. Uy buzilishi faqat bir binoning buzilishi emas, bu Bayna momoning ruhiy mustahkamligi va hayotdagi oxirgi tayanchlarining yemirilishidir. Uyning buzilishi, aslida, Bayna momoning o'tmish bilan bog'langan oxirgi rishtalarining uzilishi sifatida talqin qilinadi.

Asarda Bayna momoning hayoti davomida boshdan kechirgan fojeasi va yolg'izligi ruhiy tahlilning markazida turadi. *"...Bayna momo ellik yilga yaqin yolg'izlik davrini ana shu ayvondagi zarang ustunlarga suyanib o'tkazdi: u eri va o'g'lining judolik azobi qiynagan paytlar shu ustunlarni quchgancha yig'lab hovurini bosardi..."* [2:332]. Bu tasvir Bayna momoning ruhiy iztirobini ifodalaydi. U eri va o'g'lining o'limi ortidan butun hayotini yolg'izlik va g'am bilan o'tkazadi. Ayvon ustunlariga suyanib o'tirishi uning hayotdagi oxirgi suyanichlari bo'lib qolganini bildiradi. Ushbu detallar orqali insonning o'tmish fojeasidan qutula olmasligi, o'zini yolg'izlik va iztirob girdobida yashashga mahkum qilishi ko'rsatiladi.

Bayna momo qishloqdoshlarini eri va o'g'li o'ldirilganida sukut saqlagani uchun kechira olmaydi. *"...- Bu qishloqda erkak yo'q, - dedi Bayna momo zarda bilan, so'ng yelkasidagi bug'doyni tegirmonga kiraverishda tushirdi..."* [2:335]. Bayna momoning bu so'zlari uning qattiq g'azab va nafrat bilan to'lganini ko'rsatadi. Bu nafrat yillar o'tgan sari susaymaydi, aksincha kuchayadi. Bayna momo qishloq erkaklarini qo'rqqoq va nomard deb hisoblaydi. Ular zulmga qarshi chiqmay, sukut saqlaganliklari uchun butun umr Bayna momoning nafratiga duchor bo'lishadi. Bu nafrat uni insoniy aloqalardan butunlay uzib qo'yadi.

Asarda Zamon otboqar, ya'ni Bayna momoning eri va o'g'lining qotili, o'ldiriladi. Ammo bu Bayna momoning ruhiy azobini kamaytirmaydi. *"...Boringlar, o'liklaringga yig'langlar, - dedi. Uning qahr to'la tovushi ko'pdan buyon odam qadami yetmagan hujralar ichiga singib ketdi..."* [2:337]. Bayna momoning bu so'zlari uning kechira olmasligini ko'rsatadi. Zamon otboqarning o'limi adolatning tiklanishi bo'lishi kerak edi, lekin Bayna momo uchun bu kechikkan adolat hech qanday ahamiyatga ega emas. U allaqachon ruhiy iztirob va nafrat botqog'iga botib ketgan. Bu detallar orqali asar adolat kechikkanida inson ruhiyatiga yetkaziladigan zararni ko'rsatadi.

Bayna momoning o'limidan keyin uning sandig'idan qon bilan qoplangan tumor, qamchi, va o'nta odam barmog'i chiqadi. *"...Eng oxirida sandiqdan bog'ichini chirk bog'lagan, kaptarning yuragidek kichkina, matosi zar sim bilan tikilgan, ko'p yillik qon qotib qolgan tumor va tig'i zanglagan qaychi, uzoq yillar*



turganidan bo'g'in-bo'g'in bo'lib, faqat suyakning o'zi qolgan, u ham qoramtir tus olib, naq kukunga aylanish arafasiga kelgan, chorsining yirtig'iga pala-partish o'rab tashlangan o'nta odam barmog'i ham topildi..."[2:342]. Bu tasvirlar Bayna momoning ruhiy qasosini anglatadi. U umr bo'yi o'zining nafratini va azobini ichida saqlagan. O'nta odam barmog'i Zamon otboqarning o'limi bilan bog'liq bo'lib, Bayna momoning qat'iy nafratini ko'rsatadi. Bu detallar inson ruhiyatining qanchalik chuqur va qorong'i joylarga kirib borishi mumkinligini ko'rsatadi. Naq kukunga aylanish arafasiga kelgan barmoqlar – bu yillar davomida saqlanib kelgan og'riq va qasosning ramzi.

Hikoyaning nomi – "Shamolni tutib bo'lmaydi". Asarning nomi o'zida ramziy ma'noni mujassam etadi. "Shamolni tutib bo'lmaydi" – bu hayotning o'zgarishlarini, vaqtni va taqdirning o'z oqimini to'xtatib bo'lmasligini bildiradi. Bayna momo esa hayotning bu oqimiga qarshi kurashishga urinadi. U o'tmishga yopishib oladi, o'zining og'rig'ini unutmaydi, ammo bu kurash samara bermaydi. Shamol, ya'ni hayot va vaqt davom etadi, odamlar o'zgaradi, lekin Bayna momo o'zining ruhiy azoblari bilan o'tmishda qolib ketadi.

Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida ruhiy holatni ochib berishda bir qator detallar va obrazlar katta ahamiyat kasb etadi. Bu detallar nafaqat voqealar rivojini ko'rsatib beradi, balki qahramonlarning ichki kechinmalari, iztiroblari va ruhiy holatini ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Nazar Eshonqul hikoyada ruhiy kechinmalarni detallar orqali juda kuchli tasvirlagan:

Bayna momoning uyi – o'tmish va yolg'izlik ramzi;

Rayim polvonning yaktagi – yo'qotilgan oriyat belgisi;

O'nta odam barmog'i – ichki qasos va qahrning timsoli;

Talaba qizlar – eski va yangi avlod to'qnashuvi;

Zamon otboqarning o'limi – kechikkan adolat va befoyda g'alaba.

Bu elementlar hikoyaning og'ir, psixologik va dramatik ruhiyatini ochib beradi. Asar o'quvchini inson ruhiyatining eng nozik va murakkab jihatlariga olib kiradi.

Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida Bayna momoning sandig'i – uning butun umrining yashirin guvohi, unutilgan sirlar sandig'i, ichki kechinmalari va g'azabining timsoli sifatida tasvirlangan. Uning o'limidan keyin sandiq ochiladi va undan quyidagi narsalar chiqadi:

1. Kafanga o'ralgan kiyimlar – o'limga tayyorlik va tanazzul timsoli.

Sandiqdan nima chiqdi? "*Kafanga o'ralgan kiyimlar: Ko'ylak, ro'mol, bilaguzuk.*" Bu detallar Bayna momoning o'limga tayyor yashaganidan dalolat beradi. U uzoq yillar davomida o'limini kutgan va unga tayyor bo'lgan. Bu – hayotdan butunlay umid uzish belgisi. Shu bilan birga, sandiqdagi kelinlik ko'ylagi va bilaguzuk uning o'tib ketgan baxtli hayotini ham eslatadi.

2. Qamchi – qudrat va zulm timsoli.

Sandiqdan nima chiqdi? "*Dastasi qorayib ketgan qamchi.*" Qamchi o'z vaqtida hokimiyat va kuch ramzi bo'lgan. Bu sandiqda saqlangan qamchi Zamon otboqarning zulmini eslatadi. Shu bilan birga, bu qamchi Rayim polvon va



Zamon otboqar o'rtasidagi ziddiyatni, Bayna momoning esa umr bo'yi ichida saqlagan g'azabini ifoda etadi.

3. Xanjar – o'ch va qasos ramzi.

Sandiqdan nima chiqdi? *“Sopiga gavhar o'rnatilgan xanjar.”* Xanjar – kurash, qasos va shon-sharaf ramzi. Bu xanjar Rayim polvonga tegishli bo'lishi mumkin, chunki u polvon bo'lgani bois qurollangan bo'lishi tabiiy. Bayna momo umrining oxirigacha bu xanjarni qasos umidi bilan saqlagan, biroq uni ishlatmagan. Bu ham o'z ichida yonib, jim bo'lib ketgan alam timsolidir.

4. Erkak kishining kallapo'shi – o'tmishga sodiqlik.

Sandiqdan nima chiqdi? *“Ter hidi singib ketgan erkak kallapo'shi.”* Bu kallapo'sh Rayim polvon yoki o'g'liga tegishli bo'lishi mumkin. Bayna momo uni umr bo'yi saqlab kelgan, ya'ni o'zining eng qadrli insonlarini unutmagan. Bu detal uning o'tmishga sodiqligini, o'tmishni saqlab qolish istagini bildiradi.

5. Qur'on – iymon va sabr timsoli.

Sandiqdan nima chiqdi? *“Sarg'ayib ketgan Qur'on.”* Bu Qur'on Bayna momoning diniy e'tiqodini anglatishi mumkin. U umrining oxirigacha o'zining imtihonlariga sabr qilgan, biroq baribir odamlarni kechira olmagan. Qur'onning sarg'ayib ketgani esa uning umr bo'yi chang bosib, kam ochilganini bildiradi. Bu esa Bayna momoning ko'proq o'z nafratiga berilib ketganini anglatadi.

6. Tumor – himoya yoki la'nat belgisi

Sandiqdan nima chiqdi? *“Matosi zar sim bilan tikilgan, qon bilan qoplangan tumor.”* Bu tumor Bayna momoning himoya vositasi yoki la'nat ramzi bo'lishi mumkin. U Rayim polvon yoki o'g'liga tegishli bo'lishi ehtimoli bor. Tumorda qon qotib qolgani – o'lim bilan bog'liqligini anglatadi. Bu tumor haqiqatda himoya bera olmadi, balki fojiani eslatib turdi.

7. O'nta odam barmog'i – o'ch va fojea ramzi

Sandiqdan nima chiqdi? *“Qoramtir tus olgan o'nta odam barmog'i.”* Bu hikoyaning eng dahshatli va chuqur ma'noga ega detallardan biri. O'nta odam barmog'i – Zamon otboqarning o'limi bilan bog'liq. Bayna momo o'zi yoki kimdir orqali undan qasos olgan bo'lishi mumkin. Barmoqlarning sandiqda saqlanishi uning nafratining nihoyasiz ekanini bildiradi. Bu detal hikoyaga fojeaviy va dramatik tus beradi. Shu bilan birga, bu tafsilot Bayna momoning nafaqat og'riq, balki zulmga qarshi jim, lekin shafqatsiz kurashini ham ko'rsatadi. Bayna momoning sandig'idan chiqqan narsalar uning butun hayoti davomida to'plagan kechinmalari, nafrati, armoni va og'riqlari bo'lib xizmat qiladi. Har bir detal uning ruhiy holatini ochib beradi:

Kafansurp – o'limga tayyorlik;

Qamchi – zulm va hokimiyat;

Xanjar – qasos va g'azab;

Kallapo'sh – o'tgan zamonga sodiqlik;

Qur'on – iymon va sabr;

Tumor – umid yoki la'nat;

O'nta odam barmog'i – shafqatsiz qasos.



Bu narsalar hikoyaning fojeaviy ruhiyatini yanada chuqurlashtirib, Bayna momoning butun umri davomida qalbida saqlagan azobini ifodalovchi ramzlar bo'lib xizmat qiladi. Sandiq asarning umumiy ruhiy va falsafiy qatlamlarini ochib beradi. U nafaqat Bayna momoning, balki butun qishloq va zamonning ruhiy holatini ifodalaydi.

Hikoyada qahramonlarga tanlangan ismlar ham asarning ruhiyati tasvirini oynada aks etgan sur'ati misoli yorqin aks ettirgan. Ismlar asarning umumiy ruhiy va falsafiy kontekstini mukammal ifodalagan. Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida Zamon otboqar ismining tanlanishi oddiy bir tasodif emas, balki adibning ismlar poetikasiga bo'lgan nozik yondashuvi va asarning falsafiy mazmunini yanada chuqurroq ochib beruvchi ramziy ma'nodir. Bu ism orqali muallif vaqtning o'tkinchiligi, lekin uning inson hayotiga olib keladigan ayovsiz taqdir zarbalarini ko'rsatadi. Zamon va otboqar so'zlari o'zaro uyg'unlashib, butun asar ruhiyatini ifodalovchi kuchli obrazga aylanadi.

"Zamon" – vaqtning ayovsiz oqimi va Bayna momoga bo'ysunmasligi. Ismdagi "Zamon" so'zi bir qarashda oddiy vaqtni anglatadi, ammo hikoya kontekstida bu so'z fojeaviy taqdir va ayovsiz hayot oqimini bildiradi. Bayna momo uchun vaqt bir joyda to'xtab qolgandek, u o'zining o'tmishdagi azoblari va yo'qotishlari ichida yashaydi. Biroq zamon hech kimni kutmaydi, u o'z oqimini davom ettiradi va hech bir inson unga qarshi tura olmaydi. Zamon otboqar ismida vaqt shaxsiylashtirilgan, ya'ni u endi oddiy vaqt emas, balki fojea keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bayna momoning hayotidagi eng katta fojia – uning eri va o'g'lining o'limi – aynan shu "zamon" tomonidan olib kelinadi.

Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasida Bayna momo ismi oddiy nomlanish bo'lib qolmay, balki asarning ruhiy va falsafiy qatlamlarini ochib beruvchi chuqur ramziy ma'no kasb etadi. Adibning ismlar poetikasiga e'tibori bu obrazda ham yaqqol ko'rinadi.

"Bayna" – Oraliq holat va o'rtada qolgan ruhiyat. Ismdagi "Bayna" so'zi arabcha kelib chiqishga ega bo'lib, arabchadan o'zbekchaga bu so'zni tarjima qilsak "o'rtada", "oraliqda", "ikki narsa orasida" degan ma'nolarni bildiradi. Bu ma'no Bayna momoning ruhiy holati va hikoyadagi o'rnini ramziy tarzda ochib beradi. Demak yozuvchi hikoya qahramonining ismini aynan Bayna ismi bilan nomlashi ham bejiz emas ekan. Haqiqatdan asarning voqealar tasviriga e'tibor bersak Bayna momo o'tmish va bugunning orasida qolib ketgan tamomila o'ziga xos qahramon.

XULOSA (CONCLUSION)

"N. Eshonqul - milliy istiqlool davri o'zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari ohangning o'zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. Shu vaqtga qadar bu tahlit ko'p qatlamli, zalvorli, hikoya maromining o'zi bilan badiiy kayfiyat hosil qila biladigan nasr namunasi milliy adabiyotimizda yo'q edi hisob.



Nazar nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o'zbek millatiga xos bo'lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir" [1:81].

Nazar Eshonqul asarlarini shunchaki o'qib bo'lmaydi. Uning hikoya va qissalarini o'qiyotgan kitobxon o'zidan – o'zi chuqur fikrlashga, voqealar ortida yashiringan falsafiy qatlamlarni anglashga majbur bo'ladi. Har bir asar, har bir satr – bu hayotning ko'zga ko'rinmas, lekin yurak bilan seziladigan in'ikosi. Yozuvchining qaysi bir asariga murojaat qilmaylik, unda biz ilg'ab yetmagan hayot haqiqatlari, insoniy mohiyatning nozik jihatlari yashiringan. Nazar Eshonqul ijodi bizni faqat voqealar bilan emas, balki voqealar ortida yashiringan teran ma'no bilan o'ylashga undaydi. Yozuvchining asarlarida aks etgan real voqelik oddiy tasvir emas. U hayotning tashqi ko'rinishidan tashqari, ichki ziddiyatlarini, inson qalbidagi kurash va iztiroblarni, ruhiyatini ko'rsatadi. Hatto oddiy voqeada ham falsafiy chuqurlik, hayotning murakkab va ba'zan og'riqli haqiqatlari yashiringan. Nazar Eshonqul shunchaki yozmaydi, voqealarni shunchaki aks ettirmaydi. U har bir satrida o'quvchini o'z hayoti, o'z kechmishlari va kelajagi haqida o'ylashga undaydi. Kechani bugunda, bugunni kechada ilg'atib, vaqt va makon chegaralarini badiiy ruh bilan yengib o'tadi. To'g'ri, yozuvchining ko'plab asarlarida qorong'ulik, og'irlik, yurakni siquvchi hissiyotlar hukmronlik qiladi. Bu asarlar qorong'ulik kayfiyatni uyg'otishi mumkin, lekin haqiqiy adabiyot aynan shunday bo'ladi – u bizni bezovta qiladi, o'ylantiradi, tinch qo'ymaydi. Nazar Eshonqulning asarlaridagi shu og'irlik ham hayotning boshqa bir qirrasini, inson ruhining eng nozik va sinovli daqiqalarini ko'rsatadi.

Haqiqiy adabiyotni anglagan kitobxon yozuvchining ushbu "og'ir" asarlaridan hayotning haqiqiy mohiyatini topadi. Bu asarlar insonni o'z ichki olamiga nazar solishga, ba'zan esa hayotning achchiq haqiqatlari bilan yuzmayuz kelishga majbur qiladi. Nazar Eshonqul ijodining asl jozibasi ham shunda – u o'quvchini o'ziga maftun qilibgina qolmay, uni o'ylantiradi, ruhini uyg'otadi va hayotga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
2. Nazar Eshonqul. Saylanma I. -Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
4. Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. - Toshkent, 2016. – 302 b.



<i>Gulnoza Juraeva Axmatovna. O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA YANGILANISH EHTIYOJI</i>	977
<i>HAYTALIYEVA NIGORA. 90-YILLAR O'ZBEK SHE'RIYATINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI</i>	985
<i>Mo'minova Shohida Toshtemir qizi. ZAMONAVIY O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA QAHRAMON OBRAZINING SHAKLLANISHI</i>	990
<i>Yulduz Mustafayeva Nortoji qizi. "SHAMOLNI TUTIB BO'LMAYDI" HIKOYASIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TASVIRIDA DETAL VA ISMLAR POETIKASI</i>	995
<i>Shamshimetov Timur Tashtemirovich. TALABALAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNI OLDINI OLISHNING INNOVATSION USULLARI</i>	1002
<i>Nurmuradova Dilovar Baxodirovna. ABDURASHID NURMURODOV ROMANLARIDA URUSHNING BADIY TALQINI VA INSONIY FOJIALAR</i>	1008

